

O‘ZBEK TILI – MUSTAQIL DAVLATNING RUHI VA QUDRATI

Meliyeva Parvina

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *ushbu maqolada O‘zbek xalqining mustaqillikka erishishi va ungacha bo‘lgan davrda xalqning turmush tarzi, mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgani va yana qo‘lga kiritilgan erkinlik va imkoniyatlarimiz haqida to‘xtalib o‘tamiz. Shu bilan birga hozirda Prezidentimiz tashabbusi bilan o‘zbek tilining nufuzi va mavqeyini oshirish borasida qabul qilinayotgan qonun va chora-tadbirlar to‘g‘risidagi ko‘plab ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz.*

Kalit so‘zlar: *mustaqillik, o‘zbek tili, mafkuralashgan tuzum, milliy istiqlool, ijtimoiy guruhlar, qonuniy maqom, vazminlik siyosati, davlat suvereniteti, konstitutsiya.*

O‘zbekistonning davlat mustaqilligi va milliy istiqloolga erishuvi xalqimizning buyuk tarixiy yutug‘idir. Mustaqillik-ajdodlarimiz bergan mislsiz qurbonlar evaziga qo‘lga kiritilgan ulug‘ ne‘mat. ”Mustaqillik bizni mustabid va mafkuralashgan tuzum kishanlaridan ozod qildi, o‘zbek xalqiga o‘z yurtida boshini baland ko‘tarib yurish, o‘z madaniyatini va an‘analarini, qadr-qimmatini, dini va e‘tiqodini, ona-tili va ma‘naviyatini qayta tiklash imkonini berdi.

1991-yil 31-avgustda Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning o‘zbek xalqining mustaqilligi uchun ko‘rsatgan mehnati va qahramonligi natijasida O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida” Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun O‘zbekiston

Respublikasining Mustaqillik deklaratsiyasiga va O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonotiga asoslanib qabul qilindi.

Mustaqillikka arafasida, ya’ni 1989-yilning 19-oktabrida o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi sessiyasi muhokamasiga qo‘yilgani ham Birinchi Prezidentimiz I.Karimov nomi bilan bog‘liq. Shunday qaltis ijtimoiy-siyosiy vaziyatda o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasi keskin bahs va munozaralarga sabab bo‘lgan. O‘sha paytda ayrim siyosiy guruhlar O‘zbekiston sharoitiga to‘g‘ri kelmaydigan, bir-biriga butunlay zid va qarama-qarshi fikrlarni ilgari surgan, shuning hisobidan o‘ziga obro‘ topish, odamlarni ortidan ergashtirishga uringan edi. Chunki til bilan bog‘liq muammolar orqali milliy tuyg‘ularni ro‘kach qilib, ulardan yomon maqsadlarda foydalanish mumkin edi. Islom Karimovning o‘sha vaqtdagi har tomonlama puxta o‘ylangan, mulohaza qilib, barcha siyosiy va ijtimoiy guruhlarining talabini qondiradigan, muhimi, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob beradigan vazminlik siyosati orqali yagona to‘g‘ri yo‘lni topishga erishildi. Natijada xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lgan ona-tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga Mustaqillikka qadar-1989-yilning 21-oktyabrida ega bo‘ldi. Bu qonun o‘zbek xalqi milliy ongining rivojlanishida, mamlakat mustaqilligi mustahkamlanishida, madaniy merosning tiklanishida muhim rol o‘ynaydi. Mazkur qonun qoidalari O‘zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yildi. Mamlakatda yuz berayotgan real jarayonlar va imkoniyatlarni hisobga olib, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etishni amalga oshirish vazifasi til islohoti bilan bog‘liq masalalarga zarur tuzatishlar kiritish ehtiyojini tug‘dirdi. Respublika hali Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan va madaniy-ma’naviy

sohada o'ziga xoslikni mustahkamlashga intilgan bir sharoitda qabul qilingan davlat tili haqidagi qonunning ko'p moddalariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishni taqozo etdi. Natijada 1995-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risidagi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi.

O'zbekistonda yillar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi davlat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan dastlabki qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga asoslanib o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi. Mustaqillik yillarida ona-tilimiz tom ma'noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi. O'zbek tilini O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu qonun va boshqa qonunlar bilan belgilandi. O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga sharoit yaratildi va boshqa millat va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi.

Bugungi globalshuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada dastlab o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona-tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga e'tibor qaratishi tabiiydir. O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, yurtimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash borasida:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, SJIF:5.219

O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va keng jamoatchilikning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun 21-oktabr sanasini “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2020-yil 10-aprelda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbek tili bayrami kunini belgilash to‘g‘risida” gi Qonunni qabul qilinishi quvonarli hol bo‘ldi. Ushbu qonun bilan har yili 21-oktabr butun mamlakatimiz bo‘ylab katta bayram sifatida nishonlanadi. Bu esa xalqimiz orasida ona tilimiz qay darajada ardoqlanishi va hurmat qilinishining isbotidir.

Shu bilan birga yurtimizda Davlat tilini rivojlantirish departamentining asosiy vazifalari quyidagilar:

-davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish, bu sohada jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish;

-davlat organlari va tashkilotlari, jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini tashkil etish bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

-davlat tilining amal qilishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan va uni rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosatini olib borish bo‘yicha takliflar yuritish;

-o‘zbek tilining yozma nutqi me‘yor va qoidalarini ishlab chiqish bo‘yicha va lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini to‘liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish;

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqida”gi qonunning 24-moddasida O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladilar. Ushbu qonun doirasida yurtimizda istiqomat qiluvchi hech bir shaxs o‘z tiliga xusumat bilan qarashi yoki unga hurmatsizlik qilishi mumkin emas. Nafaqat o‘z tiliga, balki boshqa tilga ham bunday munosabatda bo‘lish qonunlarda ko‘rsatilgan javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi.

19-moddasida esa muassasa, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo‘shma korxonalarning va shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarning muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Ushbu qonunning 20-moddasida lavhalar, e’lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e’lon qilinadi va boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin. Bunda, albatta yuqorida aytilganidek barcha lavha, e’lonlar rus, ingliz yoki boshqa tillarda yozilgandan ko‘ra o‘z tilimizda bo‘lgani yaxshiroq.

Hozirgi kunda barcha ta’lim muassasalarida yoshlarga davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish davlat tilini ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Xulasa qilib shuni aytish joizki, davlatimiz o‘z mustaqilligiga, istiqlol yo‘liga va davlat tiliga oson erishmadi. Shunday ekan har birimiz o‘z tilimizni unutmasligimiz va kelajak avlodni ham shu ruhda tarbiya etmog‘imiz darkor. Bu yil “O‘zbek tiliga davlat tili” maqomi berilishining 36 yilligini keng nishonlash arafasida turibmiz. Ushbu bayramni barchamiz faxr va iftixor ila qarshi olishimiz o‘z tilimizga bo‘lgan hurmatimiz ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R.Hasanov, Sh.O‘ljayeva, O.Musayev. O‘zbekistonni eng yangi tarixi. Toshkent-2022. 44-45 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev.Toshkent.2019-yil 21-oktabr. PF-5850-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov. O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonuni. Toshkent. 1995-yil 21-dekabr. 167-I-son.
4. Abdumajidov F., Davlat tili haqida (qonunga sharhlar), T., 1998. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. https://uza.uz/oz/posts/davlat-tiliga-hurmat-vatanga-ehtiromdir_525164.